

TARJIMA SAN'ATI: USULLARI, MUAMMOLARI VA MADANIY AHAMIYATI

Israilova Dilorom Shomaxamatovna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Xorijiy tillar kafedrasи nemis tili o'qituvchisi.

Dilorom_76@mail.ru +99893/539-26-55.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14812624>

Annotatsiya. Ushbu maqola tarjima nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda tarjimaning ahamiyati, uning rivojlanish tarixi, tarjima usullari va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi. Maqolada tarjimaning turlari, jumladan, so'zma-so'z tarjima, moslashtirilgan tarjima va erkin tarjima usullari bataysil tahlil qilinadi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari misollar bilan ko'rsatiladi. Tarjimonning mahorati, uning tilni, madaniyatni va kontekstni bilishi tarjima sifatiga ta'siri alohida urg'u beriladi. Maqolada badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari, tarjimonning mas'uliyati va ijodiy yondashuvi haqida fikr yuritiladi. Tarjima qilinayotgan matndagi ba'zi qismalarning o'chirilishi yoki o'zgartirilishi sabablari tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjima usullari, so'zma-so'z tarjima, moslashtirilgan tarjima, erkin tarjima, badiiy tarjima, madaniyat, xalqlararo muloqot.

ИСКУССТВО ПЕРЕВОДА: МЕТОДЫ, ПРОБЛЕМЫ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. Данная статья посвящена теории и практике перевода, в ней рассматриваются важность перевода, история его развития, методы перевода и проблемы, возникающие в процессе перевода. В статье подробно анализируются виды перевода, в том числе дословный перевод, адаптированный перевод и свободный перевод.

Преимущества и недостатки каждого метода показаны на примерах. Особое внимание уделяется мастерству переводчика, его знанию языка, культуры и контекста, влиянию на качество перевода. В статье рассматриваются особенности художественного перевода, ответственность и творческий подход переводчика.

Объясняются причины удаления или изменения некоторых частей в переведимом тексте.

Ключевые слова: перевод, методы перевода, дословный перевод, адаптированный перевод, свободный перевод, художественный перевод, культура, межкультурная коммуникация.

THE ART OF TRANSLATION: METHODS, PROBLEMS, AND CULTURAL SIGNIFICANCE

Abstract. This article is dedicated to the theory and practice of translation, exploring the importance of translation, its history, translation methods, and the challenges that arise during

the translation process. The article provides a detailed analysis of translation types, including word-for-word translation, adapted translation, and free translation. The advantages and disadvantages of each method are illustrated with examples. Special attention is given to the translator's skill, their knowledge of language, culture, and context, and the impact on the quality of translation. The article examines the specific features of literary translation, the translator's responsibility and creative approach. The reasons for deleting or modifying certain parts of the translated text are explained.

Keywords: *translation, translation methods, word-for-word translation, adapted translation, free translation, literary translation, culture, intercultural communication.*

Kirish: Tarjima san'ati insoniyatning madaniy va ijtimoiy turmushida g'oyat muhim ahamiyatga ega. U odamlarning dunyoqarashini kengaytirishga, madaniy merosni asrash va rivojlantirishga, tillar orasidagi aloqani ta'minlashga, turli millatlar o'rtasida madaniy almashinuvni rag'batlantirishga katta hissa qo'shadi. Tarjima san'ati o'zining boy tarixiga ega bo'lib, qadim zamonlardan boshlangan. Ilk davrlarda og'zaki tarjimalar ustunlik qilgan, bunda ma'lumotlar oddiy kishilar tomonidan bir tildan boshqa tilga o'tkazilgan. Keyinchalik, bosma va yozma adabiyotlarning tarqalishi bilan professional tarjima shakllandi.

20-asrda, tarjima san'ati professionallashdi va ko'plab ijtimoiy va madaniy sohalarga ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, internet va kompyuter dasturlari, tarjima jarayonini osonlashtirib, ko'p madaniyatli aloqalarni mustahkamladi. Badiiy tarjimalardan tortib, texnik hujjalarni, film subtitrlarigacha, tarjima nazariyasi tamoyillari turli tillar va madaniyatlar o'rtasida samarali muloqotga yordam beradi.

Asosiy qism: “Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmasligi kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi.” [1. 99-b]. “Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi”. [2. 18-b] Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'prik deb qaraladi.

“Tarjima tushunchasi keng qamrovlidir. Masalan, yozma tarjima nasr, nazm, ilmiy va ilmiy ommabop asarlar, xujjalarni, ro'znomalar va jurnallardagi ma'lumotlar, rasmiy va biznes xatlar va boshqa yozilgan matnlarni tarjimasini ichiga oladi.”[3.199-b]

Tegishli tarjima usulini tanlash ko'p jihatdan matn turiga, kontekstga va tarjima maqsadiga bog'liq. Quyida keltirilgan uchta asosiy usulni ko'rib taqqoslaymiz:

1. So'zma-so'z tarjima: Ushbu usul manba matniga imkon qadar yaqin amal qiladi, madaniy farqlar yoki kontekstga kam e'tibor beriladi, unda tarjimon manba matnidagi har bir so'zni yoki iborani maqsadli tildagi mos keladigan so'z yoki ibora bilan almashtirishga harakat qiladi.

Ushbu usul manba matnining shakli va tuzilishini saqlab qolishga intiladi, lekin ko'pincha madaniy farqlar va kontekstni e'tiborsiz qoldiradi. So'zma-so'z tarjima usulining afzalliliklari:

- **Manba matniga sodiqlik:** So'zma-so'z tarjima manba matnining ma'nosini buzmaslikka va uning asl shaklini saqlab qolishga yordam beradi.

- **Til o'rganish uchun foydali:** So'zma-so'z tarjima yangi tilni o'rganayotganlar uchun so'zlarning ma'nolarini va ularning ishlatalishini tushunishga yordam beradi.

So'zma-so'z tarjima usulining kamchiliklari:

- **Noaniqlik va tushunmovchilik:** So'zma-so'z tarjima ko'pincha noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin, chunki u tilning grammatik tuzilishi va madaniy xususiyatlarini hisobga olmaydi.

- **Ma'noning yo'qolishi:** So'zma-so'z tarjima natijasida matnning asl ma'nosini va ruhiyatini yo'qolishi mumkin.

- **Madaniy kontekstning e'tiborsizligi:** So'zma-so'z tarjima madaniy farqlarni va kontekstni e'tiborga olmaydi, bu esa noto'g'ri tarjimaga olib kelishi mumkin.

So'zma-so'z tarjimaga misol: "Ich verstehe nur Bahnhof" iborasi so'zma-s'z "Men faqat vokzalni tushunaman" deb tarjima qilinadi. Aslida esa bu ibora "Men hech narsa tushunmayapman:" degan ma'noni bildiradi. "Den Kopf in den Sand stecken" iborasi so'zma-so'z "Boshni qumga tiqish" deb tarjima qilinadi. Aslida esa bu ibora "Muammoni e'tiborsiz qoldirish" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima ba'zi hollarda foydali bo'lishi mumkin, lekin u ko'pincha noaniq va tushunarsiz bo'ladi. Tarjimada ma'noni to'g'ri yetkazish uchun tarjimon tilning grammatik tuzilishi, madaniy xususiyatlari va kontekstni hisobga olishi kerak.

2. Moslashtirilgan tarjima: Bu erda matn maqsadi madaniy kontekstga moslashtiriladi, natijada asl matndan ba'zi qismlar o'zgartirilishi yoki olib tashlanishi mumkin. Bunda matnning dolzarbliji va tushunarligini oshirish uchun maqsadli madaniyatning madaniy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlari moslashtirish jarayoni tushuniladi. Moslashtirilgan tarjimaning afzalliliklari:

- **Tushunararlilik:** Moslashtirilgan tarjima matnni maqsadli auditoriya uchun yanada tushunarli qiladi, chunki u ularning madaniy xususiyatlari va til normalarini hisobga oladi.

- **Dolzarblik:** Moslashtirilgan tarjima madaniy kontekstni hisobga oladi, bu esa matnni maqsadli auditoriya uchun yanada dolzarb va ahamiyatli qiladi.

- **Samaradorlik:** Moslashtirilgan tarjima yanada samarali bo'lishi mumkin, chunki u maqsadli auditoriya tomonidan yaxshiroq qabul qilinadi.

Moslashirilgan tarjimaning kamchiliklari:

- **Tafsilotlarning yo'qolishi:** Moslashtirish jarayonida asl matndagi ba'zi tafsilotlar tushib qolishi mumkin, ular maqsadli auditoriya uchun muhim emas deb hisoblanadi.
- **Ma'noning o'zgarishi:** Agar tarjimon yetarlicha malakali bo'lmasa, ba'zi hollarda moslashtirish asl matnning ma'nosini buzilishiga olib kelishi mumkin.
- **Sub'ektivlik:** Moslashtirish sub'ektiv bo'lishi mumkin, chunki tarjimon asl matnni va madaniy kontekstni o'zicha talqin qilishi mumkin.

Misol: "Guten Tag, wie geht es Ihnen?" So'zma-so'z tarjimada: "Xayrli kun, u sizda qanday ketyapti?" yoki „ Xayrli kun, ishlariz qanday?“. Moslashtirilgan tarjimada: "Assalomu alaykum, yaxshimisiz?". Bu misolda moslashtirilgan tarjima o'zbek madaniyatida qabul qilingan salomlashish shaklini qo'llaydi.

Moslashirilgan tarjima turli madaniy kontekstlarda samarali ishslash uchun matnlar yaratishda muhim vositadir. U matnni maqsadli auditoriya uchun yanada tushunarli, dolzarb va samarali qilishga imkon beradi. Biroq, moslashtirilgan tarjima tarjimondan yuqori malaka va madaniy kompetensiyani talab qiladi, chunki asl matnning ma'nosini buzmaslik va sifatli tarjima yaratish kerak.

3. Erkin yoki mazmuniy tarjima - bu asl matnning ma'nosini va ohangini saqlab qolishga mo'ljallangan tarjima usuli bo'lib, u so'z tanlovi yoki jumla tuzilishiga qat'iy amal qilmaydi. Tarjimon asl matnning g'oyasini, ruhini va uslubini yetkazishga e'tibor qaratadi. Erkin tarjimaning afzalliklari:

- **Tabiiylik:** Erkin tarjima maqsadli tilda tabiiy va ravon eshitiladi, chunki u asl matnning qolipiga qat'iy rioya qilmaydi.
- **Moslashuv:** Erkin tarjima maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin, bu esa uni yanada samarali qiladi.
- **Ma'noni saqlash:** Erkin tarjima tarjimonning asl matnning asosiy ma'nosini va g'oyasini yetkazishga imkon beradi, hatto buning uchun so'zlar yoki jumlalarni o'zgartirish kerak bo'lsa ham.

Erkin tarjimaning kamchiliklari:

- **Sub'ektivlik:** Erkin tarjima sub'ektiv bo'lishi mumkin, chunki tarjimon asl matnni o'zicha talqin qilishi mumkin.
- **Tafsilotlarning yo'qolishi:** Erkin tarjimada tarjimon uchun muhim bo'limgan ba'zi tafsilotlar tushib qolishi mumkin.
- **Noto'g'rilik:** Agar tarjimon yetarlicha malakali bo'lmasa, erkin tarjima asl matnning ma'nosini buzishi mumkin.

Erkin tarjimaga misol: “Die Katze ist auf den Tisch gesprungen.” So’zma-so’z “Mushuk stolga sakradi.” deb tarjima qilinadi. Erkin tarjimada esa “Mushuk stolga irg’ib chiqdi.” Bu misolda erkin tarjima mushukning harakat dinamikasini yanada aniqroq ifodalaydi. Yoki boshqa bir misol: “Er hat den ganzen Tag gearbeitet.” So’zma-so’z “U butun kun ishladi.” Deb tarjima qilinsa, erkin tarjimada: “U kun bo’yi tinimsiz ishladi.” Deb berish mumkin. Bu misolda erkin tarjima ishning intensivligini yanada aniqroq ifodalaydi. “Das ist nicht mein Bier.” So’zma-so’z “Bu mening pivoim emas.”, erkin tarjimada “Bu mening ishim emas.” deb beriladi. Bu misolda erkin tarjima iboraning idiomatik ma’nosini yetkazadi. Erkin tarjima tarjimonning arsenalidagi muhim vositadir. U asl matnning ma’nosini va ohangini saqlab qolgan holda maqsadli tilda tabiiy va ravon matnlar yaratishga imkon beradi. Biroq, erkin tarjima tarjimondan yuqori malaka va mas’uliyat talab qiladi, chunki asl matnning ma’nosini buzmaslik kerak.

“Shaxsiy ijod fikr izlanishi bilan paydo bo’lsa, tarjima asarlari mos so’zlar izlash bilan vujudga keladi. Chunki tarjima qilinadigan asarda tayyor fikr, tayyor g’oya, tayyor kontseptsiya mavjud. Tarjimon unga shakl va chiroyli ifodalanadigan mantiqan teran so’z topishi kerak. Bu so’z tanlashning o’zi ham ijodkorning lug’at boyligi, o’tkir didi, nozik ta’biga bog’liq ijodiy bir jarayondir. Shunday ekan, tarjimonlik qilishga bel bog’lagan har bir ijodkor so’z boyligi va so’z san’atini mukammal egallagan yuqori didli, zukko shaxs bo’lishi lozim.” [4.]

Badiiy tarjima bilan shug’ullanadigan tarjimon nafaqat chet tilini yaxshi o’zlashtirishi, balki ushbu til tarixi va madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalar, psixologiya sohasi va xalqlar va dinlar tarixini ham bilishi muhimdir.

Original matnning qismlari quyidagi hollarda o’chirilishi mumkin:

1. Madaniy moslashtirish: Agar matndagi ma’lum atamalar yoki iboralar maqsadli auditoriya uchun tushunarsiz bo’lsa, ularni o’chirish yoki o’zgartirish mumkin.
2. Tushunish to’siqlari: Agar original matnda juda murakkab yoki notanish tushunchalar bo’lib matn mazmuniga ta’siri bo’lmasa, ularni o’chirish orqali matnni soddalashtirish mumkin.
3. Reklama yoki marketing maqsadlari: Mahsulot yoki xizmatni reklama qilishda maqsadli auditoriyaning qiziqishlariga mos kelmaydigan ba’zi qismlarni o’chirib tashlanishi yoki o’zgartirilishi mumkin.
4. Yuridik yoki axloqiy sabablarga ko’ra: Ba’zi ma’lumotlar yuridik yoki axloqiy jihatlari tufayli o’chirilishi kerak bo’lishi mumkin.
5. Rejissura yoki uslubiy sabablarga ko’ra: Agar matnning uslubi yoki ritmi o’zgarishi kerak bo’lsa, ba’zi qismlar olib tashlanishi mumkin.
6. Xavfsizlik yoki maxfiylik sabablari: Maxfiy ma’lumotlar yoki shaxsiy ma’lumotlar o’chirilishi mumkin.

Bu sabablar, tarjimonning matnni maqsadli auditoriyaga mos ravishda taqdim etish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar kiritishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, tarjima vositasida bir xalqning madaniyati boshqasiga uzatiladi. Bu jarayon, xalqaro aloqalarni mustahkamlashga, turizmni rag'batlantirishga va tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'mak beradi. Turli xil madaniyatlarning birlashtirilishi, o'tmishi va kelajagi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Tarjima, adabiyot, san'at va boshqa madaniy ifodalar turli xalqlar o'rtaida o'zaro tushunish va hamjihatlikni ta'minlashda, madaniyatlar o'rtaida ko'prik vazifasini o'taydi. Bular orqali tillar va madaniyatlar o'rtaida barqaror aloqalar o'rnatiladi. Tarjima jarayonini rivojlantirish esa, barchamizning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotimiz uchun zarurdir.

REFERENCES

1. Fazildinova S.N. Badiiy tarjima va tarjimashunoslik masalalari.-Iqro jurnali. 2023yil.-99-b.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 1978. 18-b.
3. Попович, А. Проблемы художественного перевода. – М.: Высш.школа, 1980. – 199 с.
4. С.Рўзимбоев “Tarjima ermak emas, haqiqiy ijoddir” 11. 01. 2015yil. 1-bet